



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

"Biz ahil jamoamiz"

Umumiy o'rta ta'lim maktab 1-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari

Nima uchun ahil jamoa muhim?

Maktab — birinchi ijtimoiy muhit

Maktab — bu bola uchun birinchi ijtimoiy muhit bo'lib, u yerda o'quvchilar birgalikda o'qish, muloqot qilish va hamkorlik qilishni o'rganadilar. Bu yerda o'rganilgan odob-axloq qoidalari umr bo'yi saqlanib qoladi.

Ahil jamoaning faydasi

"Biz ahil jamoamiz" mavzusi orqali o'quvchilarga jamoada yashash madaniyati, bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lish, yordam berish va adolatli bo'lish kabi tushunchalar tushuntiriladi.

- Halollik va to'g'riso'zlik shakllanadi
- Mas'uliyat va ishonch mustahkamlanadi
- Do'stlik va hamjihatlik kuchayadi
- Adolat va tenglik qadrlanadi

Boshlang'ich sinflarda bolalarga **halollik, adolat, ishonch, mas'uliyat va hisobdorlik** kabi qadriyatlarni tushuntirish huquq madaniyatni shakllantirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Bu tushunchalar nafaqat sinfda, balki kelajakdagi butun hayotda ham zarur bo'ladi.



1. So'zlashish odobi

So'zlashish odobi — bu insonning boshqalar bilan muloqot qilganda xushmuomala, rostgo'y va hurmatli bo'lib gapirishidir. Bu faqat chiroyli gapirish emas — bu boshqalarni hurmat qilish, ularni xafa qilmaslik va rost, muloyim gapirishdir.

So'zlashish odobiga kiradi:

- Salom berish va ko'rishganda tabassumli bo'lish
- Navbat bilan gapirish, boshqalarni to'xtatmaslik
- Muloyim va yumaloq gapirish
- Haqorat qilmaslik va yolg'on ishlatmaslik
- Boshqalarga halaqit bermaslik

So'zlashish odobi buzilganda:

- Bola xafa bo'ladi va o'ziga ishonchi pasayadi
- Sinfdagi do'stona muhit buziladi
- Boshqalar ham qo'pol gapirishni odat qilib olishi mumkin
- Jamoada nohaqlik va ishonchsizlik muhiti paydo bo'ladi



Yaxshi so'z insonlarni yaqinlashtiradi, janjalning oldini oladi va ishonchni mustahkamlaydi. Yomon, qo'pol yoki yolg'on so'z esa odamlarni xafa qiladi va adolatsizlikka sabab bo'ladi.

Amaliy misol: So'zlashish odobi

Nima bo'ldi?

24-maktabning 1-"A" sinfida birinchi dars boshlanishidan oldin o'quvchilar sinfxonaga yig'ilib bo'lgan edi. O'quvchi **Diyora** o'zining chiroyli rasmini sinfdoshlariga ko'rsatdi. Ba'zi bolalar uni maqtashdi.

Lekin sinfdagi **Azizbek** ovozini baland qilib: *"Bu chiroyli emas, sen umuman chizolmaysan"*, deb yubordi. Uning gapidan keyin yana ikki nafar bola kulib yubordi.

Diyora avval jim turdi, keyin ko'zlari yoshlanib, rasm daftarini yig'ishtirib sumkasiga solib qo'ydi. Dars boshlanganda ham u faol qatnashmadi, tanaffusda esa yolg'iz o'tirdi.

Tahlil: Nima noto'g'ri edi?

- Azizbek qo'pol gapirdi
- Sinfdoshini hurmat qilmadi
- Uning mehnatini kamsitdi
- Bu so'zlashish odobiga ziddir

To'g'ri yo'l qanday bo'lardi?

- "Sen ham chiroyli chizibsan" deyish
- Tanqid qilmoqchi bo'lsa, muloyim aytish
- Boshqalarni kamsitmaslik

⚠ Esda tuting: So'z bilan ham boshqa odamga zarar yetkazish mumkin. Gapirganda boshqalarning hissiyotini o'ylab gapiring!



2. O'zaro yordam

O'zaro yordam — bu insonlarning bir-biriga qiyin vaziyatda ko'maklashishi, maslahat berishi va qo'llab-quvvatlashidir. Yordam berish degani faqat do'stga yoki yaqin odamga ko'maklashish emas, balki zarurat bo'lganda barchaga mehr bilan munosabatda bo'lishdir.

Haqiqiy yordam

To'g'ri yo'l ko'rsatish, tushuntirish, boshqani mustaqil ish qilishga o'rgatish. Halollikka va adolatga xizmat qiluvchi yordam.

Noto'g'ri "yordam"

Kimningdir o'rniga ish qilib berish, qoida buzishga ko'maklashish, aldashga yoki nohaq ustunlik olishga yordam berish.

Yordam natijasi

Sinfda do'stlik, ishonch va tinchlik kuchayadi. Bolalar bir-birini raqib emas, hamkor deb ko'ra boshlaydi.

O'zaro yordam sinfda ishonch va hamjihatlikni kuchaytiradi. Agar bolalar bir-biriga yordam bersa, sinfdagi muhit yaxshilanadi va hamma o'zini qimmatli his qiladi. Lekin **yordam ham to'g'ri bo'lishi kerak** — bu halollikka va adolatga xizmat qilishi lozim.

Amaliy misol: O'zaro yordam

Vaziyat

11-maktabning 1-"B" sinfida matematika darsi tugaganidan keyin o'quvchilarga qo'shimcha mashq berildi. Sinfga yaqinda ko'chib kelgan yangi o'quvchi — **Jasmina** bu mavzuda qiynalayotgan edi.

Ba'zi o'quvchilar: "*Bu sening muammong, o'zing o'rgan*", deb ketib qolishdi. Lekin sinfdoshi **Madina** Jasminaning holatini ko'rib, uning yoniga o'tirdi.

Madina avval o'qituvchi tushuntirgan qoidani yana bir bor sodda qilib aytib berdi, keyin birinchi misolni birga ishlab ko'rsatdi. Keyin Jasmina ikkinchi misolni o'zi mustaqil yechishga harakat qildi. Madina uning o'rniga yozib bermadi — to'g'ri tushunishga yordam berdi.



Madinaning harakati nima uchun to'g'ri?

- Do'stini emas, qiynalayotgan sinfdoshini qo'llab-quvvatladi
- Uning o'rniga ish qilib bermadi
- To'g'ri yo'l ko'rsatdi
- Jasminaning mustaqil o'rganishiga yordam berdi

Xulosa

O'zaro yordam — bu qiynalgan odamni to'g'ri yo'l bilan qo'llab-quvvatlash, uni yaxshilikka va to'g'ri ishga boshlashdir.



3. Ishonch Nima?

Ishonch — bu insonning boshqa bir odamning rost gapirishiga, va'dasida turishiga va to'g'ri ish tutishiga ishonishidir. Ishonch bir kunda paydo bo'lmaydi — u yillar davomida **yaxshi xulq, halollik, va'daga vafo** va **rostgo'ylik** orqali asta-sekin shakllanadi.

Ishonch qanday shakllanadi?

- Doim rost gapirish orqali
- Boshqalarning haqini yeymaslik bilan
- O'z vazifasini vaqtida bajarish yo'li bilan
- Va'daga amal qilish orqali

Ishonch qanday yo'qoladi?

- Yolg'on gapirish va aldash bilan
- Va'dani bajarmagan holda
- Muammoni yashirishga urinish orqali
- Boshqalarning haqini yeyish bilan



Muhim! Ishonchni yo'qotish oson — bir yolg'on yoki buzilgan va'da yetarli. Lekin yo'qolgan ishonchni qayta tiklash juda qiyin va uzoq vaqt talab qiladi. Shuning uchun har qanday oila, sinf va jamiyatda ishonch — eng muhim qadriyatlardan biridir.

Amaliy holat: Ishonch

9-maktabning 1-“V” sinfida har juma kuni “kitob almashish soati” o‘tkazilar edi. O‘quvchilar uyidan olib kelgan bolalar kitoblarini bir haftaga bir-biriga o‘qishga berishar, keyin qaytarib olishar edi.

O‘quvchi Behruz sinfdoshi Kamolaga o‘zining yangi ertak kitobini bir haftaga berdi. Kamola kitobni asrab o‘qishga va keyin qaytarishga va‘da berdi. Lekin u kitobni uyida ehtiyot qilmadi, kichik ukasi sahifalarini yirtib qo‘ydi. Kamola esa bu haqda rostini aytish o‘rniga, kitobni kechiktirib yurdi va Behruz so‘raganda: “Hali o‘qib tugatmadim”, deb javob berdi. Keyin yana bir necha kun o‘tgach: “Men kitobni uyda topolmayapman”, dedi.

Oxiri kitob olib kelinganda uning bir necha sahifasi yirtilgani ma‘lum bo‘ldi. Behruz xafa bo‘ldi. Keyin Kamola boshqa narsada rost gapirganda ham, sinfdoshlari unga darrov ishonishmadi.

Kamolaning xatolari

- Va‘dasiga amal qilmadi — kitobni ehtiyot qilmadi
- Muammoni darhol aytmadi, yashirishga urindi
- Bir necha bor bahona aytdi: "Hali o'qib tugatmadim", "Topolmayapman"



Asosiy muammo faqat kitobning yirtilishi emas — balki **ishonchning buzilishi**dir.

To'g'ri yo'l qanday bo'lar edi?

Agar Kamola darhol: "*Kitobni ukam yirtib qo'ydi, uzr so'rayman, yangisin olib kelaman*" — desa, Behruz xafa bo'lishi mumkin edi, lekin **ishonch saqlanib qolardi**.

Ishonch buzilganda nima bo'ladi?

- Odamlar bir-biriga narsa berishdan qo'rqadi
- Va'daga ishonmay qo'yadi
- Munosabatlarda sovuqlik paydo bo'ladi
- Jamoada hamkorlik qiyinlashadi

4. Hurmat va adolat

Hurmat nima?

Hurmat — bu boshqalarni qadrlash, ularning fikrini tinglash, huquqini inobatga olish, keksalarga, o'qituvchilarga va tengdoshlarga yaxshi munosabatda bo'lishdir. Hurmat faqat yaxshi so'zlash emas — bu boshqalarni kamsitmaslik, ularni ham to'liq ishtirokchi deb bilishdir.

Adolat nima?

Adolat — barchaga teng va to'g'ri munosabat qilish, kimnidir sababsiz ajratib ko'rsatmaslik, haq egasiga haqini berishdir. Kimgadir faqat tanishligi uchun imtiyoz berilsa, boshqalar chetda qoldirilsa — bu adolatsizlikdir.



Hurmat va adolat — har bir bolani qadrlash, uning ishtirok etish huquqini tan olish va kimnidir sababsiz ajratib qo'ymaslikdir. Hammaga teng munosabat — ahil jamoaning asosi!



Amaliy misol

17-maktabning 1-“A” sinfida jismoniy tarbiya darsida ikki jamoaga bo‘linib o‘yin o‘tkazilishi kerak edi. O‘qituvchi vaqtincha sinf sarkoriga jamoa tuzish vazifasini berdi. Sardor bo‘lgan o‘quvchi — Shohruh birinchi bo‘lib o‘zining yaqin do‘stlarini tanlay boshladi. Keyin u yaxshi o‘ynaydigan bolalarni oldi, qolgan bolalarni esa oxirida qoldirdi. Sinfda juda faol bo‘lmagan, lekin o‘yinda qatnashishni xohlagan ikki nafar o‘quvchi — Mirjalol va Samina oxirigacha tanlanmay turishdi. Boshqa bolalar oldindan jamoaga olingani uchun ular chetda, o‘zini noqulay his qilib turishdi. Samina keyin o‘yinga chiqishni ham istamay qoldi. O‘qituvchi vaziyatni ko‘rib, bolalarni to‘xtatdi va jamoalar tuzilishida barchaga teng imkoniyat berilishi kerakligini tushuntirdi.

Nima noto'g'ri?

- Faqat do'stlar birinchi o'ringa qo'yildi
- Boshqalarning hissiyoti hisobga olinmadi
- Jamoada tenglik saqlanmadi

5. Mas'uliyat va hisobdorlik

Mas'uliyat — bu insonning o'z vazifasini vaqtida va to'g'ri bajarishi, o'ziga berilgan ishga beparvo bo'lmasligidir. **Hisobdorlik** esa — inson o'z qilgan ishi uchun javob bera olishi, xatosini yashirmasligi va uni tuzatishga harakat qilishidir.

1

Vazifani bajarish

Darsga tayyor kelish, topshiriqlarni vaqtida qilish, o'z buyumlarini ehtiyot qilish — bularning barchasi mas'uliyatga kiradi.

2

Xatoni tan olish

Kimdir xato qilib qo'ysa, lekin uni tan olib, tuzatishga harakat qilsa — bu yaxshi xulq va hisobdorlikdir.

3

Javob berish

Agar ish bajarilmasa, inson buning uchun javob berishi kerak. Boshqalarga ag'darish yoki yashirish — mas'uliyatsizlikdir.



Mas'uliyat bo'lmasa:

- Ishlar chala qoladi
- Umumiy mulkka zarar yetadi
- Boshqalar ham beparvo bo'lib qolishi mumkin

To'g'ri xulq:

Agar Mehribon boshidayoq: *"Men unutdim, hozir to'g'rileyman"*, deganida — bu hisobdorlik bo'lar edi. Mas'uliyatli bola faqat o'zi uchun emas, umumiy ish uchun ham javobgar ekanini tushunadi.

Amaliy misol

6-maktabning 1-"B" sinfida sinf burchagini bezatish uchun har bir o'quvchiga bittadan vazifa berildi. **Mehribonga** kitob javonini tartibga solish vazifasi yuklatildi. Juma kuni dars tugagach, u o'z vazifasini bajarmay, kitoblarni parta ustida qoldirib ketdi.

Ertalab kitoblarning ayrimlari yerga tushib, burchaklarida ezilish paydo bo'lgan edi. O'qituvchi so'raganda, Mehribon avval: *"Menimcha, boshqa birov qilishi kerak edi"*, dedi. Keyin sinfdoshlari eslatgach, xatosini tan oldi va kitoblarni tartibga keltirdi.

Tahlil

Bu vaziyatda mas'uliyat — berilgan ishni vaqtida va to'g'ri bajarish ekanini ko'ramiz. Hisobdorlik esa — shu ish bajarilmasa, inson buning uchun javob berishini anglatadi. Mehribonning birinchi xatosi — vazifani bajarmaslik. Ikkinchi xatosi — buni darhol tan olmaslik. Agar u boshidayoq: *"Men unutdim, hozir to'g'rileyman"*, deganida, bu hisobdorlik bo'lar edi.



Mas'uliyat va hisobdorlik bo'lmagan joyda:

- ishlar chala qoladi;
- umumiy mulkka zarar yetadi;
- boshqalar ham o'z ishiga beparvo bo'lib qolishi mumkin.

Mas'uliyatli bola esa faqat o'zi uchun emas, umumiy ish uchun ham javobgar ekanini tushunadi.